

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliyev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analar va Marosimlari	67
--	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

PO'LATJON QAYYUMIY ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

ПОЛАТЖАН КАЮЙМИЙ В ПАМЯТИ СОВРЕМЕННИКОВ

POLATJON KAYYUMIY IN MEMORIES OF CONTEMPORARIES

Lochinbek Axmadaliyev Maxamadyusuf o'g'li¹¹Lochinbek Axmadaliyev Maxamadyusuf o'g'li,

–O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch-doktoranti.

Annotatsiya

Mazkur maqola Po'latjon Qayyumiyning ibratli hayoti, ilmiy faoliyati, pedagogik mahorati xususida o'z davri zamondoshlari, izdoshlari, shogirdlari tomonidan bildirilgan fikrlar, xotiralarini yoritishga, sharhlashga qaratilgan. Tadqiqotda avtobiografik, psixologik, sistem-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan. Buning natijasida olim haqidagi fikrlarning umumlanishiga, to'ldirilishiga erishildi. Olimning hayoti va ilmiy faoliyati keng qamrovli bo'lib, ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'ladi.

Аннотация

Данная статья направлена на разъяснение и комментирование мыслей и воспоминаний современников, последователей и учеников Полатджона Кайюми о его образцовой жизни, научной деятельности и педагогическом мастерстве. В исследовании использовались автобиографический, психологический, системно-структурный, сравнительно-типологический методы. В результате было достигнуто обобщение и завершение суждений об ученом. Жизнь и научная деятельность ученого обширна и является основой для многих исследований.

Abstract

This article is aimed at elucidating and commenting on the thoughts and memories expressed by contemporaries, followers, and disciples of Polatjon Qayyumi about his exemplary life, scientific activity and pedagogical skills. Autobiographical, psychological, system-structural, comparative-typological methods were used in the research. As a result, the generalization and completion of opinions about the scientist was achieved. The life and scientific activity of a scientist is extensive and is the basis for many studies.

Kalit so'zlar: tazkira, qo'lyozma, xattot, litografiya, adabiyotshunoslik, avtograf, muzey, maqola, arxiv.

Ключевые слова: гравюра, рукопись, каллиграфия, литография, литературоведение, автограф, музей, статья, архив.

Key words: engraving, manuscript, calligraphy, lithography, literary studies, autograph, museum, article, archive.

KIRISH

Po'latjon Qayyumiy – XIX asrning so'nggi choragidan to XX asrning ikkinchi yarmigacha yashab faoliyat yuritgan jadid va ma'rifatparvar olim, mohir pedagog. U haqida o'z zamonasida hamda vafotidan so'ng adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar tomonidan ko'plab fikr-mulohazalar, xotiralar bildirilgan. Ularda olim hayoti va ilmiy faoliyati yuzasidan qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Mazkur yodnomalarni va izohtalab o'rinlarni jamlash foydadan xoli bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqola oldiga qo'yilgan masalani yechishda olimning "Tazkirai Qayyumiy", "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkirat ush-shuaro" asarlari; olim hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar jamlangan arxiv materiallari, olimning 1944-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni olishi, 1964-yilda vafoti, 1985-yilda tavalludining yuz yilligi va turli yillarda shogirdlari, avlodlari, izdoshlari tomonidan yozilgan maqolalar, turli nashr manbalaridan foydalanildi.

Mazkur manbalar tahlilida avtobiografik, psixologik, sistem-struktur, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi.

Po'latjon Qayyumiy 1885-yilda Xo'qandi latifning Xo'jand dahasiga qarashli Haydarbek II mahallasi (hozirgi 1-Sharq ko'chasi)da dunyoga kelgan. Otasi Abdulqayyum mirzo xattot bo'lib, u kishi ko'chirgan Navoiy devonlari Toshkentda litografiya usulida bosilgan. Qo'qon davlat muzeyi qo'riqxonasi arxividagi ma'lumotlarga ko'ra, Abdulqayyum Mirzo 1840-yilda tug'ilgan. Xattotlikdan tashqari, madrasada mudarrislik ham qilgan. 1913-yilda olamdan o'tgan.

Bobosi yuz qabilasi sarkardalaridan Abdurrahim Mirzo Qo'qon xoni saroyida xizmat qilib, xattotlik bilan ham shug'ullangan. Abdurrahim Mirzo xon saroyida kotib bo'lib turgani Mirza Olimning "Ansobu-s-salotin va tavarixu-l-xavoqin" asarida keltirilgan. Biroq, uning asosiy mansabi va el orasidagi obro'-e'tibori yuz qabilasi sarkardalaridan biri bo'lganligi bilan izohlanadi. [1, 664]

"...Taxtdagi xonni mag'lub aylab oning o'rniga o'ltirgan yangi xon mash'um bir farmon chiqaradi – eski xon saroyida bo'lgan a'yonlarni qatli omga hukm etadi. Bundan raiyat ham yoqa ushlaydi. Ahli ulamo junbushga keladi. A'yon degani bir-biriga o'xshamas, yaxshisi-da bordur, yomoni-da bor. Ore, o'rmonga o't ketsa, qurug'-u ho'l barobar yonur, ammoki saroy o'rmon ermasdur, ul yerda odamlar ishlaydi, bas, yaloqxo'rini, zolimni jazola, yaxshisidan ersa foydalan, yangi hukmronlig' eski aql sohiblarisiz bo'lmas!

Ammoki, yangi xon bul talablarni eshitishni-da istamaydi, bilganidan qolmay a'yonlarni bir boshdin qatl etaberaadi. Boz ustiga a'yonlarni yoqlagan ayrim olim va fozillarnida dorga osadi.

Qatl navbati donishmand a'yonlardan biri Abdurrahim mirzoga keladi va oni dor sari yo'lga sudrab chiqishadi. Qo'l-oyog'iga kishan urilgan mirzo o'limni pisand etmay boshini baland ko'tarib otlig'-u piyoda jazokorlar aro o'ziga yarashgan viqor ila vazmin va osoyishta boradi. Tomoshaga chiqqan xaloyiq ichida oq-qorani taniydiganlar ham bo'lib, olar mirzo yuz-ko'zidagi bul osoyishtalik ostinda o'kinch va bosar-tusarini bilmagan yangi xonga nafrat yotganini bilishar; oni himoyat aylashga chog'lanmoqchi ham bo'lishar, biroq o'z jonlari g'amida tiyilib, bul tiyilishdan o'lganimiz yaxshi erdi, degan xayolda tag'in avjga minishar; olarni yaqinlari to'xtatib qolishar, nafi yo'q g'avg'odin o'zlaricha himoya aylashar, bu tag'inda ko'p qon to'kilishiga olib kelishini o'ylab, bosqlikni qo'ldin bermay turishar edi.

Ening Abdurrahim mirzoga qayishmog'i besabab ermas ermas erdi, albatta. Mirzo har bir ishni yeti o'lchab bir kesadigan a'yonlar toifasidin erdikim, oning sa'y-harakatlari ila saroy pasongisi mo'tadil bo'lib, ko'p odamlar nohaq tuhmatlardin ul zot orqali himoya topar, zolimlar ersa bejavob qolmagay erdi. Mirzo o'zi xushfe'l, beozor, yaxshi-yomonni biladigan, yomonlarni-da to'g'ri yo'lga boshlashga sa'y etadurgan iymonli, e'tiqodli, insofli odam bo'lgani bois el-yurt oni hurmat aylar, ammo hozir, nohaq qatl oldida ne qilishni bilmay lojaram erdi.

Ne qilishni peshkash ulamolar bilur ekanlar, bori birdek guv etib, maydonga chiqishdi va jallodlar yo'lini to'sib olishdi-da bori bir ovozda dedikim, yo mirzoni xon ozod aylasun yoki bizni ham – barchamizni qatl qilsun!

Jazo ahli oyoq ildi. Xonga xabar ketdi. Xon avval g'azab otini tag'inda tezroq surishga, ahli ulamoni bir boshdan qirib tashlashga chog'landi, so'ng o'zi ham bilmagan qay kuch oni ortga qaytardi, hammani o'ldirib bo'lmasligini o'ylagan chog'i Abdurrahim mirzoni o'ldirish haqidagi farmonni bekor qildi va ozod ayladi.

El ulamo ahlining jasoratiga tan berish barobarida Abdurrahim mirzo tag'in saroyga qaytur, yangi xonga yaxshilik va adolatdin dars berur deb umid qildi, ammo mirzo saroyga qaytgani yo'q, umrining oxirigacha el orasida yashadi, elim deb kuyundi, onga qayishmoqdin, onga dalda bo'lmoqdin bir qadam bo'lsin qaytgani, to'xtagani yo'q". [2, 363-364]

Abdurrahim Mirzoning otasi yuz qabilasi boshliqlaridan Ne'matullo bakovulboshi va Shunqorbiyga boradi. [1, 664]

Mana shunday ulug' zotlarning avlodi bo'lgan Po'latjon Qayyumiy o'z davrining eng yetuk ziyolilaridan biri edi. Olimning jadidchilik va ma'rifatchilik harakati ham tahsinga sazovor. U Sulaymonquli Rojiiy, Ibrohim Davron, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Muhammadjon Xoliqiy, Abdulvahob Ibodiy, Salohiddin Majdiy, Yunusjon Og'alikov, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Murodiy, Abdulla Juvonmardiyev, Abdullajon Nasimiy, Abdullajon Nosirov, Qavomiddin Munirov, Abdulfattoh Rasulov, Sobir Abdulla, Charxiy, Habibiy, Mahjuriy, Zarra, Boki, Firoqiy, Javdat Abdulla, Parvona Saidiy, Mufazzal, Mulla Abdusamad Davron, Mavzun, Hushyor, Shukriy¹ singari o'nlab mashhur jadidlar, ma'rifatparvar muallimlar, shoirlar, adiblar, olimlar, xattotlar hamda boshqa kasb egalari bilan yaqin do'st, hamfikir, maslakdosh bo'lgan.

¹ Mazkur ma'rifatparvarlarning deyarli har biriga Po'latjon Qayyumiy o'zining "Tazkirai Qayyumiy" va "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asarlarida mufassal to'xtalib, ularning ijodlaridan namunalar keltirgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

U dastlab Hamza tashkil etgan maktabda o'qituvchilik qildi, keyin esa o'zi xususiy maktab ochdi. Qayyumiy domlanning bu davrdagi faoliyatining mazmun-mohiyatini uning kundalik daftari sahifalarida yorqin aks etgan.

“1912 nchi yil 3 nchi may, panjshanba... Bozorga bordim. Mullo Ahmadjondan “Devoni Hiloliy”ni oldim... Mulla Hamzaxon muallimdan erta – juma kuni soat 12 da imtihona da'vat qilg'on xat keldi”.

“1912 nchi yil 7 nchi may, dushanba. Erta soat 7 da turdim. Nonushtadan so'ng, 8 yarimda o'quv boshlandi. Soat 4 da ozod qo'ydim. Bolalardan saboqni yaxshi takror qilmagani uchun 8 nafari kechroq ketdi”.

“1914 nchi yilda shanba erdiki, maktabimizning uchinchi martaba imtihoni boshlandi... Mullo Mahmudjon mahdum, Mullo Muhammadjon, muallim Mullo Ashurali, Mullo Is'hoq domullo, Mullo Umarxon muallim huzurida imtihon berdilar. Har qayulari imtihon qilib ko'rdilar. Jug'rofiyadan yaxshi imtihon bergonlarni muallim Mullo Muhammadjon domullo rasman zikr etdilar...”

“8 nchi no'yabrda, panjshanba kuni 1335 (1917) sanaga dohil bo'ldi. Ushbu sababli bolalarga bayram qildirdim. Tarixdan bir oz aytdim. Bollar diqqat-la quloq soldilar. Mullo A'zamjon aka, Sultonali qori, Mulla Ashurali afandi, Mullo Is'hoq domullolar saboq berdilar”.

“12.XI.1962 nchi yil, dushanba kuni Solihjon Yo'ldoshuflar Adabiyot muzeyidan Namanganga kitob sotib olish uchun boradurlar ekan, undagi do'stlardan Qora hoji, shoir Sho'xiylarga xat yozib, Ramziy, Zululiylarning kitoblarini sotishga yordam etuvlarini so'radim... Solihjonlar Namanganga ketishdilar.

Bugun “Yangi Farg'ona” gazetasida Usmon Nosirning rasmi, tarjimai holi, mening maqolam chiqib edi, bir oz tuzatish joyi bordur, Lazixonga yubordim”.

“1963 nchi yil 20 nchi avgust, panjshanba... Shul kuni domullo Abdulqodir Murodiyga 20 nafar husnixat egalaridan tuzulgon ro'yxatni, sana 1304 hijriyda jaliynavis Mullo Mirmahmud maxdum muftiy Buxoriyning o'z qalami ila yozilmish qit'ani topshirdim”. [3, 3]

Adabiyotshunos olim E.Samandar ustoz xotirasida shunday degan edilar: “Po'latjon Qayyumiy... fenomeniga to'xtalinganda mening xayolimga uch narsa (xislat) keladi: ilm, jasorat, fidoyilik. Shularni o'ylarkanman...ota haqida farzandning o'z tilidan eshitish istagi tug'ildi va Azizxon aka o'z tanlagan asarlarining sakkizinchi jildini tamomlagan bir paytda amalga oshdi...”

Aziz Qayumov. Bobomiz (Abduqayyum Mirzo) o'z o'g'lining orif odam bo'lib yetishmog'ini orzulab ilm bo'stonlariga yo'llaganlar.

...Otamiz (Po'latjon Qayyumiy) o'z odatlariga ko'ra, o'qish mashg'ulotlardan so'ng sinflarni ko'zdan kechirayotib, bir o'quvchi qizning yig'lab o'tirganini ko'rib qoladilar. Ma'lum bo'ladiki, o'gay ota zug'umlaridan zada bo'lgan qiz uyga borishni istamas. Avvalida otamiz kattalarga achchiq qilmaslik, uyga qaytish zarurligini o'quvchiga tushuntiradilar, lekin qiz uyga borgandan ko'ra o'lganim yaxshi deb yum-yum yig'lagach, uni qo'llaridan ushlab, xonadonimizga olib keladilar va biznikida yashashini, o'qishini davom ettiraverishini aytadilar. Oyimiz qizga mehribonliklar ko'rsatib, uyda olib qolganlar.

Qizning onasi voqeadan xabar topib, uyimizga kelganlar va qizimni erimga xo'rlatib qo'ymayman deb, rahmatlar aytib, jigarporasini olib ketganlar.

Bu yakka-yagona misol emas. Umuman uyimiz hech qachon odamsiz bo'lmas, bechora muhtojlar besh-o'n kunmi, bir yilmi biznikida turib, o'zlarini o'nqlab ketganlar.

...Sharqshunoslik institutini bitkazayotgan paytimda otam mendan: arab imlosida o'qish va yozishni to'liq bilib oldingmi, deb so'radilar. Men shundoq deb javob berdim. Oliy ma'lumot shu ekanmi, dedilar otam. Bu – ilm egallashingga endi yo'l ochilibdi, deganlari ediki, oliy ma'lumot haqidagi xolis fikr, oliy o'quv tizimini chuqurlashtirish borasidagi keng qamrovli istak hamdir – bu aytganlari. Ular oliy ta'limga shunday talab bilan qarar edilar.

...Sadriddin Ayniyni “Namunai adabiyoti tojik” asarini o'zbek tiliga o'girdi... “Tazkirai Qayyumiy”da ko'rsatilishicha, ajoyib shoirlar Charxiy va Yoriyning ajib mushoirasiga otamiz guvoh bo'lganlar. Buni tazkiraga kiritganlar ham. Unda, jumladan, quyidagi baytlar mavjud.

Charxiy: “Nozik qading chiroyi chamanning latofati,

Ohu ko'zing karashmasi olamning ofati”.

Yoriy: “Gulzorlarda gul ochilur oni shavqidin,

Bulbul fig'on-u nolasidandur sharofati...”

Charxiy: "Charxiy hamisha yor vaslin tilay degay,

Qay kun muyassar o'lg'usi husning ziyofati".

Ozarbayjonlik alloma, akademik H.Orasli bir uchrashganimizda tazkiradan quyidagi baytni aytib bergan edi. Oshiqning qabriga yozib qo'yilgan bayt:

Zoir, borib ahvolimi tarje' etarmisan,

So'ylarmisan ziyoratiga intizorimi!

Turkiston muxtoriyati va uning fojiali taqdiri barchaga ma'lum. Sovetlar va dashnoqlarning qirg'inlariga, genotsidiga til aylanmaydi. Talato'p chog'i bir mahalladan er-u xotin o'z jonlarini amallab saqlab, ammo bor-yo'g'idan mosuvo bo'lib, sarsonlik-sargardonlik balosiga yo'liqishdi. Bundan xabar topgan Po'latjon domla ularni o'z xonadoniga boshlab keldi. Ularga hovli adog'idan alohida xona ajratib berishdi. Ular ilk kundan boshlaboq xonadon sohiblariga og'ir ishlarda ko'makdosh bo'lishib, xalq iborasi bilan aytganda, uyning o'ti bilan kirib, kuli bilan chiqishdi. Xush fe'llari, kechani kecha, kunduzni kunduz demay ikki qo'llari doim ishda bo'lganliklari bois qaddilarini tiklab, ixcham bo'lsa-da, o'zlariga boshpana qurib chiqib ketishdi.

Shuncha xislatlari bilan ustoz olim hamma qatori oddiy kamtarin inson edilar. Masalan, u kishining uylanishlari yoki o'g'li Azizxonning tug'ilishini olaylik.

Yosh Po'latjon qo'shni qishloq go'zaliga ko'ngil qo'ygan edi. Ul go'zalning ismi Adolatxon bo'lib, husn va tamizi, odob va pokizaligi el og'ziga tushgandi. Yigit va qiz katxudolari bundan xabar topib, yoshlarni unashtirib qo'yishga ahd etib, non sindirish marosimini o'tkazdi. Lekin to'yga hali ancha bor edi, sababki, Adolatxon endi o'n to'rtga kirgan, yangi zamon odatiga ko'ra qiz o'n sakkizga kirmagunicha tushurindi qilish mumkin emasdi. Kutaman dedi kuyov, to'rt yil nima degan gap...

Respublika oqsoqoli Qo'qonga bir safari chog'ida Po'latjon Qayyumiy direktorlik qilayotgan internatga tashrif buyuradi. Ota kelishiga internat jamoasi yaxshi tayyorlangan. Ota kirib keldilar ham, uchrashuv boshlanib ketdi hamki, direktor kelmadi. Tashrif tugay deganida Po'latjon domla kirib keldilar. Ayolining ko'zi hozirgina yorib, domla o'g'illik bo'libdilar.

Umri aziz bo'lsin, dedi Yo'ldosh ota xursand bo'lib.

Po'latjon domla o'g'liga Aziz deb ism berdilar. Qo'qonga bu birpasda ovoza bo'lgan o'shanda. [2, 367-374]

Bu haqida "Tazkirai Qayyumiy"da shunday deyiladi: "...1926 nchi yilda 19 nchi yanvarda otasining uchinchi bolasi bo'lub (2 nchi o'g'ul) dunyoga keldi. Ko'zlari ochiq holda enaga qo'lida yalang'och turgani holda atrofqa qarab yig'lamay termular edi. Shoir Majzubning nomi ekanining nazarda tutub Abdulaziz ataldi. Keyincha Azizxon nom bo'lub ketdi. Muallim Po'ladjonning o'g'lidur. Bobolarining adabiy sohaga muhibligini bobomdan qolgan kitoblardan ma'lum bo'lsada, shoirlik butun ko'ringani yo'qdur. Faqat she'r Aziziyda ko'rundi. She'riy ijodiga rahbar ustoz domulla Asg'arali Charxiydur". [1, 664]

Aziz Qayyumov otasining va ustozlari shoir Charxiy va akademik V.Zohidovlarning doimiy qo'llab-quvvatlashlarini tubandagicha xotirlaydi: "Biz o'rta maktabda o'qiyotgan paytlarda (XX asrning 30-yillari) o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha shoir Maxmurning bitta "Hapalak" radifli she'ridan boshqa hech narsa ma'lum emas edi. 1951-yili Qo'qon shaharida mening adabiyotdagi ustozim shoir Charxiy va padari buzrukvorimiz Po'latjon domulla Qayumovlar shoir Maxmurning devoni (qo'lyozma she'rlar to'plami) topilganini menga xabar qilishdi. Men darhol Qo'qonga yetib borib, uni topib kelgan odamdan sotib oldim va Toshkentga olib keldim. Akademiklardan G'afur G'ulom, V.Y.Zohidov, Sharqshunoslik institutining direktori Sabohat Azimjonova bu qo'lyozma bilan tanishib chiqdilar.

Shoir Hamid G'ulom (u kishi bu vaqtda markaziy gazetada adabiyot bo'limiga boshliq edilar) gazetada mening bu to'g'ridagi axborotimni e'lon qilishga yordam ko'rsatdilar. Bu mening markaziy matbuotdagi birinchi chiqishimdir. V.Y.Zohidov ilmiy rahbarligida men Maxmur qo'lyozma devoni to'g'risida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertasiya ishini 1954-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida yoqladim". [4, 5]

Olim 1964-yil 27-avgustda 79 yoshida Qo'qon shahrida olamdan o'tgan. O'zbekiston xalq shoiri Habibiy unga atab ta'rix bitgan. Qayyumiy domla vafotidan so'ng ham uning xotirasi zamondoshlari, shogirdlari, izdoshlari qalbida mangu qolgan. Chunonchi, Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar" qissasi, Qori Niyoziy "Hayot maktabi" xotira kitobi, To'xtasin Jalolov "O'zbek

ADABIYOTSHUNOSLIK

shoiralari” tadqiqot ishi, Yo’ldosh Sulaymon “O’lis yulduzlar” ocherki, Midhatjon Mamajonov “Muallim” muvashshahi, Iqbol Mirzo “Usmon Nosir” pyesasida muallim ma’rifatparvar hurmat bilan tilga olinadi.

Shulardan biri M.Mamajonovning “Muallim” muvashshahini ko’raylik. Muvashshah 1985-yil 28-noyabrda Qo’qon shahrida bo’lib o’tgan “Po’latjon Qayyumiy tavalludining yuz yilligi” yubileyi munosabati bilan yozgan:

*Parda ko’zimdan ochib bergan ziyo muallim,
Boshlariga yog’di sochib qilgan jilo muallim.
O’t erdingiz elimning yoritgali yo’lini,
Daho ekansiz asli, mash’alnamo muallim.
Lol erdi xushkalomlar shirin zabongizdan,
Suhbatlaringiz erdi jonga g’ido, muallim.
Olamda yo’q ilmdek poyoni yo’q xazina,
Elga sadoqatingiz beintiho, muallim.
Tanlarda toki jon bor, hattoki bu jahone bor,
Do’stlar shiori sizga mehr-u vafo, muallim.
Jomi sahovatingiz oqqan bilan ozaymas,
Xalq mehri sizga ham hech bo’lmas ado, muallim.
Oqlab ishonchingizni farzand-u do’stlaringiz,
Aylar aziz Vatanga jonlar fido, muallim.
Nuroniylar xil’atingiz Midhat ko’zida, aylar,
Yuz yoshingizda yuz bor ta’zim bajo, muallim.* [5, 3]

Ushbu muvashshahning toq misralari bosh harflarini yig’ib chiqsak, “Po’lotjon” so’zi hosil bo’ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Po’latjon Qayyumiy – o’zbek mumtoz mumtoz adabiyotining zahmatkash tadqiqotchilaridan biri. Natijalar shuni ko’rsatadiki, olimning tarixnavislik va o’lkashunoslik sohalarida yozgan qo’lyozma asarlarini topish va ilmiy tavsifini berish, ilmiy tadqiq qilish zarur. Bundan tashqari, olimning shaxsiy kundaliklari ham topilib, ilmiy muhokama etilsa, olim hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ma’lumotlarga ega bo’linadi. Olimning “Tazkirai Qayyumiy”, “Xo’qand tarixi va uning adabiyoti”, “O’zbek namuna adabiyoti”, “Turkiy she’rlar to’plami” asarlarini ham qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish kerak. Mazkur masalalar adabiyotshunoslar, xususan, matnshunos-manbashunos olimlar oldida turgan vazifalardan biridir.

XULOSA

Po’latjon Qayyumiyning izlanishlari Qo’qon adabiy muhitining keng ko’lamda o’rganila boshlanishiga amaliy turtki bo’ldi. Po’latjon Qayyumiyning zahmatli menatlari evaziga yuzaga kelgan asarlari, olim tomonidan samarali tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlari o’z davridan to bugunga qadar mumtoz adabiyot, xususan, Qo’qon adabiy muhiti bo’yicha amalga oshirilib kelinayotgan ilmiy tadqiqotlarga birlamchi manbalardan bo’lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po’latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayumov A.). – T.: O’zR FA Qo’lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo’limi, 1998. – B. 713 (Polatjan Kayyumi. Tazkirai Kayyumi (the publisher: Kayumov A.). – T.: UzR Academy of Sciences editorial publishing department of the institute of Manuscripts, 1998. – P. 713.).
2. Erkin Samandar. Ular shunday edilar (Po’latjon Qayyumiy portretiga chizgilar) // Po’latjon Qayyumiy. Xo’qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi: Qayumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. – B. 377 (Erkin Samandar. They were like that (lines to the portrait Polatjan Kayyumi) // Polatjan Kayyumi. Kokand history and its literature (the publisher: Kayumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. – P. 377.).
3. Madaminov A. Ustoz muallim, adabiyotshunos olim. // Mehnat bayrog’i, 1985-yil 27-noyabr soni. – B. 3 (Madaminov A. Master teacher, literary scholar. // Labor flag, november 27, 1985 issue. – P. 3.).
4. Qayumov A. Asarlar. 7-jild (2-kitob). – T.: Mumtoz so’z, 2012. – B. 250 (Kayumov A. Books. Volume 7 (Book 2). – T.: Mumtoz so’z, 2012. – P. 250.).
5. Mamajonov M. Muallim. // Mehnat bayrog’i, 1985-yil 20-noyabr soni. – B. 3 (Mamajonov M. Teacher. // Labor flag, november 20, 1985 issue. – P. 3.).
6. Qayumov A. Qo’qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – T.: FAN, 1961. – B. 360 (Kayumov A. Kokand literary environment (XVIII-XIX centuries). – T.: PAS, 1961. – P. 360.).
7. Qayumov A. Asarlar 7-jild (1-kitob). – T.: Mumtoz so’z, 2010. – B. 278 (Kayumov A. Books. Volume 7 (Book 1). – T.: Mumtoz so’z, 2012. – P. 278.).

8. Polatjan Qayyumiy. Xo'qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi Qayumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. – B. 377 (Polatjan Kayyumi. Kokand history and its literature (the publisher: Kayumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. – P. 377.).

9. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. – T.: Sharq, 2010. – B. 527 (Berdak Yusuf. Dictionary of classic literary works. – T.: Sharq, 2010. – P. 527.).

10. Po'latjon Qayyumiy. Tazkiratu-sh-shuaro (1-kitob). – T.: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2006. – B. 194 (Polatjan Kayyumi. Tazkiratu-sh-shuaro (Book 1). – T.: UzR Academy of Sciences State Literature Museum named after Alisher Navoi, 2006. – P. 194.).

11. Po'latjon Qayyumiy. Tazkiratu-sh-shuaro (2-kitob). – T.: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, 2006. – B. 182 (Polatjan Kayyumi. Tazkiratu-sh-shuaro (Book 2). – T.: UzR Academy of Sciences State Literature Museum named after Alisher Navoi, 2006. – P. 182.).

(Taqrizchi: A.Sabirdinov - filologiya fanlari doktori)